

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохидат Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Дехқонова Махсумахон Шавкатовна	
МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИК ВА ШЕЪРИЯТ	7
2. Sh.E.Kurbanova, N.Yu.Matquliyeva	
HOFIZ XORAZMIYNING SHE'RIY MEROSINI O'RGANISHNI AHAMIYATI	9
3. Oygul Maxmudova	
TURKIY TILDA QUSHLARNING NOMLANISHI (A.NAVOIY ASARLARI MISOLIDA). 11	



АДАБИЁТ

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИК ВА ШЕЪРИЯТ

Дехқонова Махсумaxon Шавкатовна

ФДУ адабиётшунослик кафедраси

катта ўқитувчиси

e-mail: dexqonovamaxsuma@gmail.com

Аннотация: ўзбек адабиётида яратилган асарларга танқидчилик доимо муносабат билдириб келган ва бу адабиётшуносликнинг ривожига катта таъсир кўрсатган. Айниқса, шеъриятнинг ўрганилиши шоирларнинг қаламини ўткирлаб, изланишга мажбур этган. Мустақиллик йилларида адабиётшунослик соҳаси тубдан ислоҳ қилинди, ўзбек шеърияти янги маъно касб этди.

Калит сўзлар: мустақиллик даври шеърияти, таҳлил, танқид, баҳолаш, адабий жараён

Мустақиллик йиллари мамлакатимиз ҳаётида кенг қўламли ишларни амалга ошириш учун имкониятлар яратилди. Айниқса, адабиёт соҳасида сўз эркинлиги ва сўз мустақиллигига эришилганлиги адабиёт намоёндаларининг ҳам, унинг тафтишчиларининг ҳам орзуларини рўёбга чиқарди. Бадиий ижодда ҳам, унинг тадқиқида ҳам янгилинишлар, ўзгаришлар кўзга ташланди. Маълумки, жамиятда бўлаётган ўзгаришлар, биринчи навбатда, адабиётда кўзга ташланади. Адабиётшунослик ҳам мустақилликдан кейин янги тус олди. Адабий танқидчилик инсон руҳияти, унинг маънавий оламига кириб борди. Адабий танқидчилик соҳаси билан шуғулланган қалами ўткир ижодкорлар ҳам мустақил тузум даврида айта олмаган фикрларини, тафаккур маҳсулини айта олиши учун имкониятлар яратилди.

“Истиқлол туфайли маънавий қадриятларга, маданиятга, жумладан, сўз санъатига нисбатан муносабат тубдан ўзгарди. Янги давр нафақат адабиётимиз тарихига, балки замонавий адабий-бадиий жараёнга ҳам янги ҳаявоний-эстетик мезон билан ёндашишни тақозо қилди”¹. Мустақиллик йилларида ўзбек шеърияти қайтадан туғилди. Унинг шеъриятидаги рамзийлик, образлар хилма-хиллиги, ботиний моҳият, кўнгил кечинмалари қайтадан кашф этилди.

XX асрнинг йирик адабиёт вакиллари шеърияти асарлари қайта ва қайта таҳлилга тортилган. Танқидчиларнинг насрий асарларига бўлган қизиқишлари назмга ҳам кўчиб, шеъриятга янги қарашлар, янги андозалар асосида тадқиқ қилинди.

“Бадиий асар ёки умуман бадиий ижод адабий танқиднинг, адабий-танқидий қарашларнинг вужудга келиши сабаби бўлиб, натижа – адабий танқид, ўз навбатида, бадиий ижоднинг тараққиёти сабабига айланади, шундай қилиб, улар ўзаро алоқага киришадилар”².

Шеърият мустақиллик йилларида ҳам танқидчиликнинг нигоҳида мунтазам ўрганилиб, янги ёндашувлар асосида ўзгача маъно касб этди. Мустақиллик йилларида олиб борилган тадқиқотлар адабиётшунослик тараққиётига улкан ҳисса бўлиб қўшилди. Шоирлар ижоди шаклий изланишлар асосида ўрганилди. “Мустақиллик даври ўзбек шеърияти мазмунан китобхонни тафаккурга чорловчи, интеллектуал мушоҳадалар уйғотувчи, сўзнинг маъно қатламларини чуқур таҳлил эта билишга чорловчи бадиий-эстетик ҳодиса сифатида янги босқичга кўтарилди”³. Ҳақиқатан, мустақиллик даврида ижод намуналаридаги маъно қатламлари чуқур таҳлил этилиб, шеъриятнинг бадиий-эстетик жиҳатларини қайта ёритишга имкон яратилди. Мустақиллик даврида яратилган тадқиқотлар орқали шоирлар ижодини янги ёндашув асосида атрофлича, ҳолис, ҳаққоний баҳолаш борасида илк

1 Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент: Yangi nashr, 2010. – Б. 5

2 Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 6.

3 Орипова Г. Мустақиллик даври ўзбек шеъриятининг ғоявий-эстетик ва бадиий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD)... дисс. – Фарғона, 2019. – Б. 42.



қадамлар қўйилди, адабиётшуносликнинг янги босқичга қўтарилишига замин яратилди. Шўро даври адабиётшунослигида шеърят ижтимоий-сиёсий ёндашувлар асосида бир ёклама таҳлил этилган бўлса, туйғу-кечинмалар шеърятни қораланди. Бу шўро даври адабиётшунослигининг нуқсонларидан бири эди.

Хулоса қилиб айтганда, шеърятга мустақилликдан олдинги давр умумий фонида муносабат билдирилган бўлса, истиқлол шарофати билан кўнгилда қолиб кетган қарашлар изҳорига изн берилди. Шоирларнинг ижод намуналари мундарижаси хилма-хил бўлгани каби, унга муносабатлар ҳам хилма-хил бўлиши мунаққидларимизнинг чиқишларида аниқ кўзга ташланди. Хусусан, Б.Назаров, Н.Каримов, О.Шарафиддинов, И.Ғофуров, У.Норматов, Н.Рахимжонов, Й.Солижонов, А.Сабирдинов, У.Ҳамдам, С.Қуронов ва бошқалар шеърятнинг нозик қирраларини холисона баҳолаб, мустақиллик даври адабиётшунослигида шеърларнинг таъсир манбалари, шакл ва мазмун борасидаги ўзига хосликлар, жаҳон андозалари асосидаги ижод намуналари эканлиги чуқур ёритилиб берди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент: Yangi nashr, 2010. – Б. 5
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 6.
3. Орипова Г. Мустақиллик даври ўзбек шеърятининг ғоявий-эстетик ва бадиий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD)... дисс. – Фарғона, 2019. – Б. 42.



HOFIZ XORAZMIYNING SHE‘RIY MEROSINI O‘RGANISHNI AHAMIYATI

Sh.E.Kurbanova

Urganch Davlat universiteti 212-“Adabiyotshunoslik”
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.

N.Yu.Matquliyeva

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
akademik litseyi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug‘ shoirimiz Hofiz Xorazmiyning yoshlarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirishga maqsadida she‘riy merosini o‘rganishning ahamiyati va muhimligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, adabiy me‘ros, shoir devoni, she‘r, she‘riy me‘rosi, ijod.

O‘zbek adabiyotida ko‘pchilik shoir va yozuvchilar ijod qilishgan. Shulardan biri - o‘zbek tilida ijod qilgan shoirlar orasida XIV-XV asrlarda yashagan Hofiz Xorazmiy bo‘lib, u o‘zining sermahsul va salmoqli adabiy me‘rosi bilan ajralib turadi. U o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida ma‘lum bo‘lgan to‘qqizta janrlarda samarali ijod qilgan. Biroq, hozirgi kungacha shoir devoni qo‘lyozmasining oxirgi sahifalari saqlanmagan, ammo uning boshqa janrlardagi namunalari mavjud deb, taxmin qilsa bo‘ladi. Shoirning ajoyib va juda ta‘sirchan she‘rini keltirib o‘tamiz:

Jonsan temay, ul sarvi ravong‘a ne teg‘ayman,
Mundin o‘ngin ul ofati jong‘a ne teg‘ayman.
O‘q yangli qading rost mani o‘rtadi temay,
Ul sharti bu buzuq, qavli yolong‘a ne teg‘ayman.
Umrumdur o‘shul qadingu umrumni savarman,
Temayin o‘shul umri javong‘a ne teg‘ayman.
Yaxshilar aro men kim ani yaxshi bilibman,
Yaxshi temayin, yaxshi yamong‘a ne teg‘ayman.
Ko‘rgali yuzini bo‘lubon volavu shaydo,
Bilmasman o‘shul huri jonong‘a ne teg‘ayman.
Ul qosh ila g‘amza qiladur jonima chun qasd,
Tuhmat qilibon tiru kamong‘a ne teg‘ayman.
Suchi so‘z ila tor og‘zi jon tilar ersa,
Hofiz bikin ul sirri nihong‘a ne teg‘ayman.

Mazkur she‘r shoirning o‘z hayotiga oid bo‘lib, bu bevosita uning g‘azal janrida ijod qilganligini ko‘rsatadi. Hofiz Xorazmiy ovz ijodiy merosida faqat g‘azal janrida 1052 ta she‘rlarni yozgan. Bu esa shoirning iste‘dodli va qobiliyatli ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Uni she‘rlarning o‘ziga xos xususiyati, avvalo shoir zamondoshlari tomonidan yozilgan va bizgacha saqlanib kelgan g‘azal janridagi namunalarning barchasi bizda yuqori qiziqish uyg‘otadi.

Hofiz Xorazmiy turkiy tilda boy adabiy meros yozib qoldirgan va o‘z she‘rlaridan to‘plam shaklida devonlar tuzgan. Jumladan, uning devonida 1052 ta g‘azal, 9 ta qasida va bir qator muxammas, tarje‘band, tarkibband, ruboiy, qit‘alardan iborat jami 37264 ta misra she‘rlar mavjud. Ularda inson baxt-saodati, erkinligi, dunyoviy sevgi-muhabbat ulug‘langan, o‘z zamonasidagi turli ijtimoiy salbiy illatlar qoralangan.

Asosan, uning she‘rlarida mazmun-mundariyasi keng bo‘lib, falsafiy teranligi, insonparvarlik ruhi, yuksak badiiyatining ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Hamda tili sodda, ravon va xalq tiliga yaqin bo‘lib, uning bizga qoldirgan manbalarida Xorazm shevasiga xos unsurlar juda ko‘p uchraydi. Devonining XV asrning 30-yillarida ko‘chirilgan yagona qo‘lyozmasi Hindistonning Haydarobod shahridagi Salorjang muzeyi kutubxonasida va fotonusxasi esa O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanib kelmoqda.

Shunisi ahamiyatliki, Hofiz Xorazmiy to‘plagan she‘riy me‘rosi yaqin yillargacha ilmiy jamoatchilikka ma‘lum emas edi va uni oshkor qilishda muammolar ham mavjud edi. Bu borada mashhur olim Hamid Sulaymon uning nomi va uning devoni qo‘lyozmasini 1975-yilda Hindistonga ilmiy safari vaqtida aniqlaydi. Olimning sa‘y-harakatlari bilan shoirning yagona nusxadagi devoni to‘planib, u Hindistonda Haydarobod shahridagi Salarjang muzeyining sharq qo‘lyozmalari bo‘limida saqlanib kelmoqda.



Hofiz Xorazmiy o'zbek va fors tillarida faol ijod qilgan, u asosan Xorazm va Sherozda yashagan, bu hududlarda uning bilimi va ko'nikmalari rivojlanib boradi. Bu ijobiy xislatlar uning devoniga muhrlangan. Bu esa bizga shoir devoni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Har bir foydalanuvchi she'rlaning qayta-qayta o'qisa, uning badiiy mahorati yuksak va uslubi yetuk san'atkor bo'lganligiga ishonch hosil qiladi. Xususan, quyidagi she'ri uning ijodining o'ta ehtirosli ekanligini ko'rsatadi:

Qaro kofir ko'zung ayni balodur,
Yangaqlaringning oli ko'ngul oladur.
Yuzung uzra ko'rinur boqiy,
O'shadin yuzungga ko'zum boqodur.
Nechakim yoqsa ishqing o'ti jonni
O'shal yoqmoqi jong'a xush yoqodur.

Shu bilan birga, u boshqa shoirlardan tub farq qiladi. Ya'ni, uning XV asrda yashagan shoirlar ijodidan farqi shundaki, u ko'proq arab-fors so'zlari kam, xalq tiliga yaqin so'zlardan ko'proq foydalangan, Xorazm shevasiga xos so'zlar ham ko'p uchraydi. Quyidagi she'rida bu holatlarni yaqqol kuzatamiz:

Jahonda barchadin dildor yaxshi,
Tuman ag'yordin bir yor yaxshi.
Raqib aning qoshinda yaxshi bo'lmas,
Chu gul qoshinda bo'lmas xor yaxshi.
Hamisha xastadur dardi bilan jon,
Bo'la bilmadi bu bemor yaxshi.
Tilarman doimo bedor anikim,
Saodat doimo bedor yaxshi.
Kerakmastur manga kunji savomiy,
Chu andin xonayi xammor yaxshi.
Qora zulfi bila ko'zi xush erur,
Chu tarror iladur ayyor yaxshi.
Ko'zi Hofiz ko'zinga xush ko'rinur,
Chun erur barcha mardumdor yaxshi.

Xulosa qilib aytganda, Hofiz Xorazmiy o'z zamonasining insonparvar va ma'rifatparvar kishisidir. Hamda u Hofiz Sheroziy, Jomiy va Navoiylar singari o'ta yuqori diniy-tasavvufiy dunyoqarashga ega. Uning she'rlarida Mansur Hallojni chuqur hurmat bilan tilga olganligi ham uchraydi. Demak, uning o'z davrida bunday qarash, hozirgi mumtoz adabiyotimiz namunalarining o'rganilishi va nashr etilishi ma'naviy-madaniy me'rosimizga bo'lgan qiziqishning yanada ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Devon. 1-2-kitob. - T., 1981.
2. Hayot vasfi. - T., 1988.
3. Sulaymonov H. O'zbek shoiri Hofiz Xorazmiy va uning Haydaroboddan topilgan devoni. - T.: Adabiy meros, 1976.
4. <https://saviya.uz/mavzu/hofiz-xorazmiy/>



TURKIY TILDA QUSHLARNING NOMLANISHI (A.NAVOIY ASARLARI MISOLIDA)

Oygul Maxmudova

Fargʻona davlat universiteti
maktabgacha taʼlim kafedrası oʻqituvchisi
e-mail:oygultohirjonovna@mail.ru

Annotatsiya: Istiqloq yuksak ilohiy neʼmat sifatida madaniy-maʼnaviy hayotimizga teran kirib bormoqda. Yurtdoshlarimizni barkamol shaxs qilib tarbiyalash yoʻlidagi saʼy-u harakatlar boshida axloqiy va maʼnaviy tarbiyaning davlat dasturi maqomiga koʻtarilishi turibdi. Qatagʻonga uchragan anʼanalarimiz, islom dini va tasavvuf, uning badiiy adabiyotga taʼsiri masalalarida ochiq-oydin mushohada yuritish imkoniyati tugʻildi. Ushbu maqolada turkiy soʻzlarning asrlar davomida badiiy sayqallangani va oqilona qoʻllanganiga Navoiy asarlari yordamida misollar keltiriladi.

Kalit soʻzlar: mumtoz adabiyot, Alisher Navoiy, majoz, ramziy obraz, qushlar, mifologiya.

Badiiy adabiyot tabiat gultoji sanalmish hazrati inson bilan egizak dunyo yuzini koʻrgan sanʼat turlaridan biridir. Adabiyot tarixi esa mana shu oʻziga xos murakkab hodisaning eng qadimgi davrlardan zamonamizgacha boʻlgan tarixiy taraqqiyot jarayonini mumtoz adabiyot deb ataymiz. Nazm va epos asrlar davomida oʻzbek mumtoz adabiyotining oʻziga xos sifatida taraqqiy topib keldi. Mumtoz adabiyotning oʻziga xos jihatlaridan biri ramz va majoz bilan soʻzlash anʼanasi boʻlib, mumtoz adabiyot namunalarini yaxshiroq tushunish, oʻsha davrdagi muallifning asl maqsadini anglash uchun mana shu ramz va majoz tilini bilishimiz kerak boʻladi.

Ana shunday majoz sifatida qoʻllanuvchi obrazlardan eng faoli – bu qushlardir. Qushlar jahon xalqlari mifologiyasida katta ahamiyatga ega boʻlib, voqealar jarayonida birdaniga paydo boʻluvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin oʻzgartiruvchi unsur sifatida eʼtirof etiladi. Ular, asosan, ilohiyot bilan odamlarning oʻrtasidagi koʻpriq sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida talqin qilingan. Masalan, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi qushlar timsoli asosiy ramziy obrazlardan sanaladi. Asarda koʻplab qushlar nomi keltirib oʻtilgan. Oʻquvchi asar bilan tanishish jarayonida notanish nomlar ortida qaysi qush turi turganini bilishi lozim.

Shunday notanish qushlardan biri **qaqnus** boʻlib, qaqnus haqida Navoiy asarlari lugʻatida shunday deyilgan: «Qaqnus – mavhum bir qush, afsonaga koʻra tumshugʻida juda koʻp teshiklar boʻlib, bu teshiklardan chiqqan ovozlardan goʻyo musiqa oʻylab chiqarilar emish.» Yana bir qush **semurgʻ** – Eron-soʻgʻd xalqlari mifologiyasida sehrli, barcha narsaga qodir qush ramzi sifatida tasvirlanib, Axuramazdaga tenglashtiriladi. U burgutsimon tumshuqli, katta qanotli, bahaybat va patlari ham sehrli qush tarzida tasvirlanadi. Bu variantlarda Semurgʻ goh podshohlarni oʻziga jalb etadigan, bir pati yarim podsholikka teng noyob qush tasvirida, goh bosh qahramonning homiysi va himoyachisi qiyofasida, goh insonni oʻziga maftun etadigan sayroqi va goʻzal qush timsolida keladi. Navoiy dostonida Simurgʻ – oʻttiz qush, Ollohning ramziy timsoli talqinlaridan tashqari yangi – komil inson maʼnosi ham kashf etildi.

Humo – oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi namunalarida davlat qushi, baxt qushi kabi variantlarda uchraydi. Davlat qushi varianti mamlakat podshosi vafot etgach, taxt vorisi boʻlmagan paytlarda uchiriladigan afsonaviy qush sifatida talqin qilinadi. Emishki, qush munosib taxt egasining gʻoyibona tarzda tanlab, boshiga qoʻnarkan. “Lison ut-tayr”da Navoiy Humoning afsonaviy xususiyatiga oʻziga xos fikr bildiradi. Navoiy xuddi mana shu sodda mantiqqa asoslanib, “Lison ut-tayr”da “Men davlat qushiman”, deb daʼvo qilgan Humoning daʼvosi yolgʻonligini isbotlaydi. Bugina emas. Agar shunday boʻlgan taqdirda ham bundan senga hech foyda yoʻq, deydi Hudhud Humoga.

1.Bulbul – chumchuqsimonlar turkumiga oid kulrang, sayroqi qush

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulgʻa tikondek oshyon boʻlmas emish.

2.Durroj –tazarv - qirgʻovul, tustovuq. Tazarv (tustovuq) – mumtoz adabiyotda goʻzallik timsoli boʻlib, bu oʻrinda tashqi chiroyiga mahliyo boʻlgan engiltak yoxud ruhiyatning engil-elpiliklarga moyilligi timsolida gavdalanadi:

Er kirar er sonigʻa himmat bila,
Er emas faxr aylagʻon ziynat bila.
Erga xulqu feʼl erur zebu kamol,
Yangi zarkash hullasidur eski shol.

Durrojning yolgʻonni chin oʻrnigʻa ayturidin hodisa domigʻa tushganida chin soʻzin sher yolgʻon sogʻinib faryodigʻa yetmagani. (“Hayrat ul-abror” asari)



3. Hamoma- kaptar, kabutar. Kabutar – dostonga Navoiyning o‘zi kiritgan qush timsollaridan sanaladi. U dunyo mifologiyasida ruh, tinchlik ma’nosini anglatadi, turkiy xalqlar asotirlarida ham “devlarning joni kabutar shaklida bo‘lar emish”, degan tushunchani eslagan edik. Shu bilan birga, inson ruhiga ham muqoyasa qilinadi. Navoiyning kabutari ham, shuni nazarda tutgan holda, uzrida o‘zini “barcha qushlar ichra hayyu lo yamut” – tirik, o‘lmaydigan qushman, deb tanishtiradi. “Lison ut-tayr”da kabutar uy-joyiga asir bo‘lgan odam yoki vujudiga asir notavon ruh timsolida talqin qilinadi: Yuqoridin indi ikki burgut, Qildilar ikki hamomani qut (“Layli va Majnun” asari).

4. Hudhud – popishak. Hudhud obrazining kelib chiqishi Qur’oni karimning “Naml” surasiga borib taqaladi. Unda Hudhudning Sulaymon payg‘ambar va Saba’ malikasi Bilqiys o‘rtasidagi vositachiligi keltirilib o‘tilgan. Bu sura sabab Hudhud forsiy va turkiy adabiyotda Navoiydan oldin ham eng faol qushlar obrazi darajasida bo‘lgan. Jumladan, fors adabiyotida Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, turkiy adabi- yotda Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy, turk adibi Gulshahriy asarlaridagi turli o‘rinlarda ahamiyatli obraz sifatida ko‘ramiz. Navoiy bu obrazga bir qator o‘zgartishlar kiritdi. Natijada, Navoiyning Hudhudi komil inson, piri murshid, o‘zligini taniyotgan ruh (nafsi lavvoma) kabi ma’nolarni aks ettirdi: “Yarim farsax yo‘l borg‘anda, shul asnoda bir hudhud yo‘luqti.”

5. Kalog‘ - olaqarg‘a. Borib anda ko‘k qarg‘a – zog‘e kelib, Ketib to‘ti, ammo kalog‘e kelib (“Saddi Iskandariy” asari)

6. Kuykanak – lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich qush, kuyka Uqobu kuykanakni qilsalar sayd, Qachon qilg‘ay aning saydini bu sayd (“Farhod va Shirin” asari).

7. Soqizg‘on – zag‘izg‘on, hakka. Tun-kunni qilur binafsha sizg‘on, Kofur ila mushkdin soqizg‘on (“Farhod va Shirin” asari).

8. Uqob – burgut. Burgut – Navoiyning o‘zi kiritgan yana bir qush timsoli. U, asosan, turkiy adabiyotda mard, jasur va ovchi obrazida gavdalangan. Dostondagi o‘rinda Navoiy burgutni nafsga, jismoniy kuch-qudratga berilib, toat-ibodatni esidan chiqargan inson yoki asliyatni unutgan ruh timsolida talqin qiladi:

Muncha birla o‘zni tavsif etkasen,
Zo‘ru shavkat birla ta‘rif etkasen.
Pahlavonu qahramon ul bo‘ldi, ul –
Kim, kechib jonidin etkoy azmi yo‘l.

9. Xuffosh – ko‘rshapalak

May ketur, ey mug‘ki, yuz hayrat aro qolmish Masih, Bul‘ ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadir. (“Badoye‘ ul-vasat” asari)

10. Shunqor – lochinsimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich qush.

Shunqor bo‘lmoq – halok bo‘lmoq. Shunqor – o‘zining podshohligini aytib, shohga ehtiyoji yo‘qligini izhor etadi. Navoiy bu timsol bilan taxt va amalga ruju qo‘ygan shaxslarni hamda ruhiyatdagi amalparastlik illatini ifoda etadi:

Qavmi nodonkim, degaylar seni shoh,
Butni yo o‘tni degondekdur iloh.
Zotinga shatranj shohidur adil,
Kim, o‘zidek o‘trusidadur badil.

11. Chug‘z – boyo‘g‘li

Rahjkash bo‘lkim, chu tortar chug‘z vayron ichra ranj,
Ajdahodin biymi yo‘q, ammo erur ummidi ganj. (“Favoyid ul-kibar” asari)

Umuman olganda, mumtoz adabiyotimizdagi qushlar obrazlari ahamiyatli timsollardan sanalib, inson ruhi, uning ilohiyot bilan yaqinlashuvi va unga intilishini o‘zida mujassam etadi. Shu boisdan ham mumtoz asarlarni o‘rganish chog‘ida ularda uchraydigan qushlar obrazini chuqur tahlil qilish, etimologik holatiga alohida e’tibor berib o‘tish joiz. Turkiy so‘zlar juda qadimiy bo‘lib, asrlar osha turli o‘lmas asarlar orqali adabiyotimizning har bir qatlamida yashamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. –T.: “Fan”, 1993.
2. Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. – T.: Fan, 1968.
3. Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
